

MUSIQIY TA'LIM JARAYONIDA FORTEPIANO SINFI O'QUVCHILARINING TEXNIK SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.017>

Mamarahimov Rustamjon Ibrohimovich
Qo'qon davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada fortepiano sinfi o'quvchilarida qo'l texnikasini rivojlantirishning metodik asoslari yoritilgan. Ijro texnikasining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar - to'g'ri postanovka, barmoqlar holati, dinamika, shtrix va tovush sifati tahlil qilingan. Texnik mashqlarni ongli va individual yondashuv asosida tashkil etish zarurligi asoslab berilib, qo'l texnikasini samarali rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: fortepiano, ijro texnikasi, qo'l texnikasi, postanovka, texnik mashqlar, dinamika, shtrix, musiqiy ta'lim

DEVELOPMENT OF TECHNICAL COMPETENCES OF PIANO STUDENTS IN THE PROCESS OF MUSIC EDUCATION

Mamarahimov Rustamjon Ibrohimovich
Kokand State University

Abstract: This article examines the methodological foundations for developing hand technique in piano students. The factors influencing performance technique formation - correct posture, finger position, dynamics, articulation, and sound quality - are analyzed. The importance of conscious and individualized technical practice is emphasized, and practical recommendations for improving piano performance technique are provided.

Keywords: piano, performance technique, hand technique, posture, technical exercises, dynamics, articulation, music education

Bugungi davrda musiqiy ta'lim jarayonida fortepiano sinfi mashg'ulotlari o'quvchilarning umumiy musiqiy darajasini shakllantirishda hamda ijrochilik mahoratini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, fortepiano ijrosida qo'l texnikasini to'g'ri yo'lga qo'yish o'quvchining nafaqat texnik salohiyatini, balki asarni obrazli talqin qilish qobiliyatini ham bevosita belgilaydi.

Fortepiano san'ati o'zining keng ifoda imkoniyatlari, tembr bo'yoqlarining rang-barangligi va murakkab texnik xususiyatlari bilan akademik musiqa ta'limi tizimida

yetakchi o‘rinlardan birini egallab kelmoqda. Ayniqsa, fortepiano sinfida tahsil olayotgan o‘quvchilarda texnik imkoniyatlarni shakllantirish nafaqat puxta ijro poydevorini yaratadi, balki ularning musiqiy tafakkuri, ritmik sezgirliigi hamda ijodiy yondashuvini yanada chuqurlashtiradi. Ammo amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning texnik rivojlanish jarayoni ko‘pincha sust kechadi va bu holat keyingi bosqichlardagi ijrochilik darajasiga bevosita ta‘sir o‘tkazadi.

Mazkur tadqiqot fortepiano ta‘limi beruvchi muassasalarda o‘quvchilarning qo‘l texnikasini shakllantirish borasidagi mavjud holatni batafsil o‘rganish, dolzarb muammolarni aniqlash hamda ularning yechimiga qaratilgan samarali metodik yondashuvlarni ilgari surish maqsadida amalga oshirildi. Ayniqsa, bugungi kunda texnik mashqlarni mexanik tarzda bajarishga asoslangan yondashuvdan voz kechib, individual va didaktik jihatdan puxta asoslangan tizimga o‘tish zarurati tobora ortib bormoqda.

Ushbu ishda o‘quvchilarda texnik ko‘nikmalar shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar - pedagogik uslub, mashg‘ulotlar tarkibi, o‘quvchining shaxsiy xususiyatlariga mos yondashuv, shuningdek, zamonaviy texnik mashqlar tizimi har tomonlama tahlil etiladi. Shuningdek, mavjud metodik nuqsonlar va ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq tavsiyalar asosida qo‘l texnikasini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka erishish yo‘llari yoritib beriladi.

Musiqiy asarni har tomonlama puxta va mukammal ijro etishda ijrochining texnik salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda asarning tempi, dinamikasi, ritmik aniqligi hamda tovush sifati asosiy mezonlar hisoblanadi. Ba‘zan o‘quvchilar ijrosini tinglar ekanmiz, asarni bajarish jarayonida texnik jihatdagi nuqsonlar yaqqol sezilib turadi. Ma‘lumki, mustahkam texnikaga qisqa fursatda erishib bo‘lmaydi, buni ayniqsa musiqachilar yaxshi anglaydi. Buning uchun muntazam mehnat, sabr-toqat, tartib-intizom va vaqt talab etiladi. Yana bir muhim omillardan biri - bu ishtiyoqdir.

O‘quvchida o‘z texnikasini takomillashtirishga kuchli intilish mavjud bo‘lsagina, ustoz bergan bilim va ko‘rsatmalar asosida texnik mahoratini rivojlantirish mumkin. Hatto sezilarli darajada ijobiy natijalarga erishish ham shunday sharoitda yuz beradi. Forteplano ijrosida ijrochining texnikasi oz bo‘lsa-da yaxshilanganini faqat uzluksiz mashq va tirishqoqlik natijasida, bir necha oy davomida kuzatish mumkin.

Pianistning ijro mahoratini oshirish yuzasidan qator foydali manbalar mavjud bo‘lib, ular qatoriga Evgeny Liberman hamda Heinrich Neuhaus kabi taniqli musiqashunos va pedagoglarni kiritish mumkin. Albatta, pedagoglar ushbu adabiyotlar bilan yaqindan tanish bo‘lib, ulardan samarali natijalar olish imkoniga egalar. E.Liberman tavsiya etgan usullar ijro texnikasini rivojlantirishni, avvalo, postanovkadagi kamchiliklarni bartaraf etishdan boshlash zarurligini ta‘kidlaydi. Bunda barmoqlar holatidan tortib, gavda, yelka va oyoqlarning to‘g‘ri joylashuvigacha bo‘lgan jihatlar muhim deb ko‘rsatiladi.

Bu, albatta, to'g'ri yondashuvdir, chunki noto'g'ri postanovka bilan asarni mukammal darajada ijro etib bo'lmaydi. Bunday holat ijroning notekis, ritmik jihatdan noaniq bo'lishiga olib keladi. Masalan, barmoqlar yoyiq holda, ularning uchidagi sezgir nuqtalar bilan emas, balki yotiq tarzda chalish tempga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, tez sur'atdagi asarlarda tezlikni saqlash qiyinlashadi, shtirixlarni aniq ifodalash ham murakkablashadi.

Barmoqlarning uch bo'g'imi faol holatda bo'lishi, sezgir nuqtalar bilan chalish, yelkalarni erkin va siqmasdan tutish, tirsaklarni yelka kengligidan biroz ochiq holda saqlash (buni quvurlardan to'sqinliksiz oqayotgan suvga qiyoslash mumkin: agar quvurda bukilish yoki torayish bo'lmasa, suv erkin oqadi. Yelkadan barmoqlargacha yetib kelayotgan kuch ham xuddi shunday - agar tirsaklar qisilgan yoki yetarlicha ochilmagan bo'lsa, kuch barmoqlarga to'liq yetib bormaydi, natijada qo'llarda charchoq, og'riq va erkinlikning yo'qligi kuzatiladi), gavnani tik tutish hamda oyoqlarni to'g'ri joylashtirish katta ahamiyatga ega. Navbatdagi muhim jihatlar - to'g'ri sanoq, shtirixlar, dinamika va tovush sifati hisoblanadi. Ba'zan ijrochi pianissimo chalishga urinib, kerakli mayin tovushni hosil qila olmagan holatlar kuzatiladi. Ayrim vaziyatlarda esa klavish bosilgani bilan tovush yetarlicha yangramaydi. Aksincha, forte qismlarida me'yoridan ortiq kuch ishlatib yuborish ham uchraydi. Har ikkala holat ham ijrochining texnik tayyorgarligi yetarli darajada emasligidan dalolat beradi.

Ma'lum vaqt ilgari ayrim musiqashunoslar fortepianoda texnik mashqlarni, masalan, Ganon (Hanon) mashqlarini bajarishda barmoqlarni go'yoki sportchilarnikidek harakatlantirishning o'zi kifoya, shu jarayonda ongni boshqa faoliyatga - masalan, kitob o'qishga yo'naltirish mumkin, degan fikrni ilgari surishgan. Biroq Evgeny Liberman ta'kidlaganidek, barmoq va miya o'zaro chambarchas bog'liqdir. Barmoqlar harakatini aynan miya boshqaradi va bu ilmiy jihatdan ham asoslangan. Shu sababli texnik mashqlarni bajarish chog'ida diqqatni boshqa tomonga chalg'itish ijro mahoratini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, deb bo'lmaydi. Demak, texnikani takomillashtirish uchun gamma va mashqlarni ijro etish jarayonida ham butun e'tiborni musiqa jarayoniga qaratish zarur.

Ijro usullarini mukammallashtirish, asar yoki gamma hamda arpedjiolarni ravon, bir maromda, uzilmasdan va to'xtovsiz chalish uchun turli metodik usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, nuqtali ritmik usullar samarali vositalardan biri hisoblanadi. Biroq ularni asarlarda qo'llashda har bir asarning ritmik tuzilishi va nota bo'linishidan kelib chiqib yondashish lozim. Shuningdek, bir xil nuqtali usulni ketma-ket va ortiqcha takrorlash kutilgan natijani bermasligi, aksincha salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois metodik usullar bilan ishlashda ular haqidagi nazariy bilim va amaliy tushunchalar muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqori sinflarda ijro texnikasini rivojlantirish pedagogdan chuqur bilim, doimiy e'tibor hamda har bir o'quvchiga individual yondashuvni talab etadi. O'qituvchi o'quvchining eng kichik kamchiliklarini ham nazardan qochirmay, ular ustida izchil ishlashi zarur. Eng asosiysi, o'quvchi o'zidagi nuqsonlarni ongli ravishda anglab yetgandagina ularni bartaraf eta oladi va fortepiano ijrosidagi texnik mahoratini yanada oshirish imkoniga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davronova, G. M., & Irisova, F. A. Forteplano sinfi o'quvchilarining qo'l texnikasini rivojlantirishning mavjud ahvoli *текущее состояние развития ручной техники у учащихся класса фортепиано the current state of developing hand technique in fortepiano. "Fan va ta'lim integratsiyasi" jurnalining tahrir hay'ati tarkibi.*
2. Mamasoliyevna, N. L., & UY, Y. (2025, June). fortepiano ijrochiligi asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijro texnikasini rivojlantirish texnologiyalari. in *conference of advance science & emerging technologies* (Vol. 1, No. 2, pp. 250-252).
3. Бирмак, А. О. (1973). Художественной технике пианиста. *А. Бирмак. М.: Изд-во «Музыка».*
4. Нейгауз Г.Г. "Об искусстве фортепианной игры. Записки педагога". (1987) 102 b